# II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 24 047,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 122,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,9 %)ni tashkil etdi.







B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 23,1 % ga, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 17,7 % ga o‘sish kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 17,8 % ga va Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 8,8 % o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % *da***

mlrd. so‘m




*FHI, % da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 foizini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan, % da*

***Ulushi,*** *% da*




***FHI, % da***



## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-iyun oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23 530,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 foizini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % *da*







### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 114 360 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 55,0 % ga ko‘paygan. 10,5 ming tonna neft (114,7 %) va 31 515,9 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (104,5 %) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. 2 813,0 tonna tozalanmagan paxta yog‘i (39,2 %), 4 594,0 ming. litr 80 % dan etil spirti (70,3 %) va 9,8 tonna Milliy non (yopgan non) (61,6 %) kamayish kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % *da*

### Yengil avtomobillar




### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




### Aroq




### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




### Uzum vinosi




### Paxtadan yigirilgan ip




### 80 % dan kam bo‘lmagan etil spirti




### Alyuminidan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim




### Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar,to‘rlar




### Neft




### Paxta chigiti




### Paxta tolasi




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** *dona* | **114 360,0** | **73 778,0** | **40 582,0** |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | **32 861,3** | **34 875,6** | **-2 014,3** |
| **Aroq,** *ming litr* | **151,3** | **138,2** | **-13,1** |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | **71 998,0** | **71 894,2** | **103,8** |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | **20 091,9** | **11 042,0** | **9 049,9** |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t.* | **2 813,0** | **7 177,0** | **-4 364,0** |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 55,0 % ga ko‘paydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 49 384 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 155,4 %), 12 589 dona “Nexia T-250” (90,3 %), 44 844 dona “Lacetti-Gentra” (204,2 %), 7 543 dona “Spark” (124,0 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, dona)*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*(2022- yilning yanvar-iyun oylarida)*



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 364,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,5 foizini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,7 % ga o‘sish kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*
*(yanvar-iyun oylarida)*




**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln. kvt/s* | **385,3** | **240,3** | **145,0** |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | **4,7** | **4,2** | **0,5** |
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so‘m. | **208,0** | **181,6** | **26,4** |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,8 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 foizini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | **40,9** | **37,7** | **3,2** |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd. so‘m* | **9,3** | **5,6** | **3,7** |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** *tonna* | **0,5** | **0,6** | **-0,1** |

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 235,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 154,7 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021- yil yanvar-iyun oyida 0,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to'g'ri kelib, 73,5 % ni, shuningdek, Andijon shahrida 4,4 % ni, Paxtaobod tumani 2,0 % ni, Xo'jaobod tumanida 4,9 % ni hamda Baliqchi tumani 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (54,7 %) ga ko'paygan. Yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Asaka (166,7 %), Ulug'nor (151,9 %), Paxtaobod (207,1 %), Qo'rg'ontepa (111,8 %), Baliqchi (117,6 %), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (121,6 %) ni qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-iyun oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 721,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.

## Andijon viloyati hududlari bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 18 235,7 | 100,0 | 154,7 |
| Andijon shahar | 800,2 | 4,4 | 92,5 |
| Xonobod shahar | 233,6 | 1,3 | 134,2 |
| Andijon | 303,6 | 1,7 | 116,9 |
| Asaka | 13 400,2 | 73,5 | 166,7 |
| Baliqchi | 308,3 | 1,7 | 117,6 |
| Buloqboshi | 155,5 | 0,9 | 110,2 |
| Bo‘ston | 92,0 | 0,5 | 107,9 |
| Jalaquduq | 274,6 | 1,5 | 178,9 |
| Izboskan | 264,7 | 1,5 | 121,6 |
| Ulug‘nor | 130,9 | 0,7 | 151,9 |
| Marhamat | 193,7 | 1,1 | 142,2 |
| Oltinko‘l | 230,5 | 1,3 | 100,0 |
| Paxtaobod | 367,3 | 2,0 | 2,1 m. |
| Xo‘jaobod | 892,0 | 4,9 | 194,7 |
| Shahrixon | 365,8 | 2,0 | 124,5 |
| Qo‘rg‘ontepa | 222,7 | 1,2 | 111,8 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 24 047,3 | 100,0 | 122,5 |
| Andijon shahar | 3 459,5 | 14,4 | 106,8 |
| Xonobod shahar | 938,0 | 3,9 | 101,9 |
| Andijon | 380,9 | 1,6 | 103,4 |
| Asaka | 13 798,3 | 57,4 | 145,3 |
| Baliqchi | 690,9 | 2,9 | 99,4 |
| Buloqboshi | 191,3 | 0,8 | 101,7 |
| Bo‘ston | 154,7 | 0,6 | 100,9 |
| Jalaquduq | 524,8 | 2,2 | 102,6 |
| Izboskan | 434,3 | 1,8 | 100,9 |
| Ulug‘nor | 171,6 | 0,7 | 99,6 |
| Marhamat | 289,7 | 1,2 | 108,7 |
| Oltinko‘l | 363,9 | 1,5 | 100,8 |
| Paxtaobod | 377,3 | 1,6 | 132,6 |
| Xo‘jaobod | 890,0 | 3,7 | 115,5 |
| Shahrixon | 602,9 | 2,5 | 109,5 |
| Qo‘rg‘ontepa | 779,3 | 3,2 | 114,3 |

**Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi,**
**iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati,** % *da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo‘rg‘ontepa (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,3 %), Xo‘jaobod (101,9 %), Andijon sh (106,8 %), Paxtaobod (132,6 %) va Marhamat (108,7 %), Asaka (145,3 %) Shahrixon (109,5 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

## Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 57,4 % ni) hamda Andijon shahri (14,4 %), Xonobod shahri (3,9 %), Baliqchi (2,9 %), Qo‘rg‘ontepa (3,2 %) va Xo‘jaobod (3,7 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (0,8 %), Bo‘ston (0,6 %) hamda Ulug‘nor (0,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (40 393,0 ming so‘m), Xonobod shahar (21 221,6 ming so‘m) va Andijon shahrida (7 505,9 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (6 442,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 578,7 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 39 227,7 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 7 770,1 ming so‘mni, Andijon shahrida 1 736,2 ming so‘mni, Xonobod shahrida 5 285,1 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m)*

**Andijon viloyati**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 7 356,6 | 5 578,7 |

**Andijon sh.**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 7 505,9 | 1 736,2 |

**Xonobod sh.**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 21 221,6 | 5 285,1 |

**Andijon**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 383,7 | 1 102,7 |

**Asaka**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 40 393,0 | 39 227,7 |

**Baliqchi**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 3 323,2 | 1 483,1 |

**Buloqboshi**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 295,8 | 1 053,8 |

**Bo‘ston**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 2 059,3 | 1 225,7 |

**Jalaquduq**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 2 729,2 | 1 427,9 |

**Izboskan**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 761,7 | 1 073,9 |

**Ulug‘nor**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 2 762,9 | 2 107,9 |

**Marhamat**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 613,1 | 1 078,5 |

**Oltinko‘l**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 959,6 | 1 241,4 |

**Paxtaobod**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Истеъмол маҳсулотлари* |
|---|---|
| 1 880,1 | 1 829,9 |

**Xo‘jaobod**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 7 752,7 | 7 770,1 |

**Shahrixon**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 1 935,3 | 1 174,2 |

**Qo‘rg‘ontepa**

| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|
| 3 494,7 | 998,8 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**
*(2022- yilning yanvar-iyun oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 696,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinko‘l (58,3 %), Jalaquduq (55,3 %), Shahrixon (82,3 %), hamda Andijon (83,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (2,0 %), Xonobod shahar (33,3 %) va Andijon shaharida (19,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9 616 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 985 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 31,0 foizi) Andijon shahriga, 992 tasi (10,3 %) Asaka tumaniga, 846 tasi (8,8 %) Andijon tumaniga, 719 tasi (7,5 %) Shahrixon tumaniga, 545 tasi (5,7 %) Xo‘jaobod tumaniga, 453 tasi (4,7 %) Oltinko‘l tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.




2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 591 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 78 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 13,2 %) Andijon shahrida, 48 tasi (8,1 %) Asaka tumanida, 45 tasi (7,6 %) Shahrixon tumanida, 44 tasi (7,4 %) Xo‘jaobod tumanida, 64 tasi (10,8 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari. joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (992 ta), Andijon (846 ta), Shahrixon (719 ta), Xo‘jaobod (545 ta), Oltinko‘l (453 ta), Qo‘rg‘ontepa (387 ta) va Izboskan tumanlarida (366 ta) hamda Andijon shaharida (2 985 ta) qayd etildi.




2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (356 ta), Baliqchi (473 ta), Buloqboshi (304 ta), Marhamat (331 ta), Paxtaobod (303 ta), Bo‘ston (216 ta) va Ulug‘nor tumanlarida (136 ta) hamda Xonobod shahrida (204 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.